



JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGIDA AMIR TEMUR OBRAZI TALQINLARINING QIYOSIY TADQIQI

Yaxshiyeva Zebo Rashidovna
TATU Qarshi filiali dotsenti
Filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)
e-mail: zebona.sevinch@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur haqida Evropa, rus va o'zbek adiblari va tarixchilari tomonidan yozilgan asarlar haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, ingliz adabiyotida ilk marotaba Amir Temur shaxsini o'z dramasi bosh qahramoni sifatida olib kirgan "Ingliz teatrining otasi", "Buyuk Temur" (Tamburlaine the Great) tragediyasi muallifi Kristafor Marlou (Christopher Marlowe) va Shiltberger hamda Salohiddin Toshkandiy asarlarida, Shomiy va Ibn Arabshox kabi qator tarixchi adiblar qaydlarida keltirilgan o'xshash va farqli ma'lumotlar ilmiy tahlil ostiga olingan.

Kalit so'zlar: tragediya, tetralogiya, epopiya, jangnoma, Amir Temur, Kristafor Marlou, Salohiddin Toshkandiy, Temur tuzuklari.

Abstract: This article provides some information about Amir Timur on works written by European, Russian and Uzbek scholars and historians. Also, in the work written about Christopher Marlowe and Schiltberger, authors of the tragedy "Tamburlaine the Great", who for the first time in English literature brought the person of Amir Timur as the main character of his drama. Furthermore, discussed similar and different information about Saladin Toshkandi's play and Western writers novels.

Keywords: tragedy, tetralogy, epos, battle book, Amir Timur, Christopher Marlowe, Salohiddin Toshkandi, Temur's laws.

Аннотация: В данной статье представлена некоторая информация об Амуре Тимуре по работам, написанным европейскими, российскими и узбекскими учеными и историками. Также в произведении написано о Кристофере Марлоу (Christopher Marlowe) и Шильтбергере, авторах трагедии "Тамерлан Великий", которые впервые в английской литературе вывели личность Амира Тимура в качестве главного героя своей драмы. Кроме того, обсуждалась сходная и различная информация о пьесе Салахиддина Тошканди и романах западных писателей.

Ключевые слова: трагедия, тетралогия, эпопея, джаннома, Амир Тимур, Кристофор Марлоу, Салахиддин Ташканди, законы Тимура.

Kirish: Turli xalqlar adabiyotida aks etgan tarixiy shaxslarning obrazi, syujet va motivlar o'xshashligini o'zaro ta'sir deb emas, tipologok hodisa sifatida o'rganish qiyosiy adabiyotshunoslikda muhim hodisa sanaladi. Amir Temur tarixiy shaxsining obraz sifatida realistik talqini va uni yaratishda epik an'ana va tarixiylik tamoyillariga asoslanish masalarini o'rganish bugungi kun temurshunos olim va olimalari jiddiy tadqiq etishlari zarur masalalardandir. Bu izlanishlarni olib borishda jahon adabiyot ilmida Amir Temur siymosining ilmiy jihatdan o'rganilishiga doir qator adabiyotlarni va ilmiy risolalarni o'rganish ahamiyatli:



Jahon adabiyotshunosligida Burnett, Mark Thornton, Tamburlaine. (An Elizabethan Vagabond, //Studies in philology.1987.№94), Marquis, Liane. Marlouwe, Tamburlaine and The demise of traditional Elizabethan Monarchy (Senior Honors Thesis. April 25. 2006, hdp.handle.net.2047/d10001517), Pearce; T.M. “Tamburlaine’s Discipline to his three sonnets”. An interpretation of Tamburlaine. (Part II. Modern language quarterly (1954).18-27 pages), Roux, Jean-Paul. Tamerlan. (Fayard.1991.380 p); Wilson Richard. Visible bullets. Tamburlaine the Great and Ivan the terrible. English literary history. (1995.№62 p; Sela Ron. The legendary biographies of Tamerlane. Islam and Heroic Apocrypha in Central Asia. (Cambridge University press. 2011. 166 p) kabi asarlar va tadqiqotlarni;

Rus adabiyotida va ilmiy tadqiqotlarida Горкий Максим, Лугунда о матери о Тимуре. ([http:// greylib.align.ru](http://greylib.align.ru)); Парфенев А.Т. Трагедия Кристафор Марло: (Автореф. Дисс.канд. филл.наук. М:1965. 24с); Лэмб Гарольд. “Темурлан” Потрясатель вселенной. (М: Вече. 2008); Мароцци, Жастин.Тамерлан. Завоеватель мира.(М.: Полиграфиздат, 2010. – 445с); Тилман Нагель “Тимур завоеватель и исламский мир поездного средневековья”.(Феникс.1997 г.544 с) kabilarni;

O‘zbek temurshunoslarining Amir Temur tarixiy siymosini va badiiy obrazga ko‘chgan shaxsiyatini talqin va tadqiq etgan qator ilmiy izlanishlari doirasida: Pirmqul Qodirov Amir Temur siymosi. (T.:“O‘zbekiston” NMIU, 2007.247b); G.A.Yusupova. Hozirgi o‘zbek romanlarida Amir Temur va temuriylar obrazining badiiy talqini. (Filol.fan.nom.dis.avtoref. 2005. 26 b); B Ermatov, Amir Temur g‘arbiy evropa adiblari nigohida, Risola, (Tosh. Universitet nashriyoti, 2017.-148 b); Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma.Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi va lug‘at muallifi Poyon Ravshanov (T.:1990. -351 b); P.Ravshanovning Amir Temur sulolasi (T.:Yangi asr avlodi, 2014.-651 b); D. Rasulmuhammedova “Istiqlol davri o‘zbek dramaturgiyasida Amir Temur obrazini yaratish muammolari” (filol.fan.nom.diss.avtoref. T.:2000. 21b), shuningdek, adabiyotshunos olim Damin Turayevning “O‘zbek tetralogiyasi”nomli risolasi, Z.R.Yaxshiyevaning “Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasida tarixiy voqelik va uning badiiy ifodasi” nomli ilmiy izlanishlarni misol keltirishimiz mumkin.

O‘zbek adabiyotshunosligida yozuvchi va adiblarimiz tomonidan yozilgan hamda jahon adabiy jarayonida temuriylarga oid asarlari bilan mashhur ijodkorlarning o‘zbek tiliga tarjima qilingan asarlarini uchratish mumkin: Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasi va yuzga yaqin maqolalari, Nurali qobulning “Temuriylar” epopiyasi, Lyusen Keren. “Amir Temur saltanati” (fransuz tilidan B.Ermatov tarjimasini. T.: O‘zbekiston. 2016. 247 b); Marsel Brion. “Menkim Sohibqiron-Jahongir Temur”, (T.: Yangi asr avlodi, 2011.572 b); Ibn Battuta. “Sayohatnoma”. (Masul muharrir.



N.Ibrohimov.-T.: Sharq. 2012. 688 b); A. Ibrohimov “Bizkim o’zbeklar”...(T.:Sharq, 1999.- 400 b) kabi qator adabiyot namunalari shular jumlasidandir.

Yuqorida keltirilgan asarlarni ilmiy-tahliliy o’rganib chiqish asnosida ularda mualliflarning badiiy mahorati, falsafiy axloqiy, ijtimoiy-siyosiy va ijodiy individualligi masalalari tahlil qilinganligini ko’rish mumkin. Tadqiqotlarda va ayniqsa badiiy asarlarda Amir Temur shaxsining badiiy asarda obraz sifatida kiritilishi har bir davrning ijtimoiy-siyosiy voqealari, ijodkor shaxsiyatiga tegishli adabiy estetik tamoyillarning ta’sirini inobatga olish asnosida yuzaga kelganligini qayd etish lozim. Shu bilan birgalikda, yozuvchining mashaqqatli xizmati va poetik mahoratini o’rganish va xolisona ilmiy tahlillar asosida tadqiq etish ham ilmiy izlanuvchidan katta mehnat talab etadi [1].

Ingliz adabiyotiga ilk bor Amir Temur obrazini olib kirgan shaxs “University wits” (Universitet donolari)ga mansub Kristafor Marlou “Tamburlaine the great” (Buyuk Temur) tragediyasi orqali “Ingliz teatrining otasi” (father of English theatre) degan sharafli nomga sazovor bo’lib, ingliz dramaturgiyasida “dahshatli (qudratli) fojea” (powerful tragedy) janriga ham asos soldi. Uning bosh qahramoni Tamburlaine-inglizlarda qirollar saroyidagi yuksak lavozim egasiga nisbatan aytilgan “Chamberlain” so’zining talaffuz etilishiga qulay shakli ham bo’lishi mumkin degan qarashlar mavjud. Ikki qismdan iborat ushbu tragediyani Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” qissasi bilan qiyosiy o’rgangan adabiyotshunos Olimjon Dadaboyevning qo’yidagi qarashlari ahamiyatli: K.Marlou Amir Temurni afsonaviy qahramon tarzida tasvirlab, uni baland bo’yli, tik qomatli deb tasvirlaydi: uning yelkalari keng bo’lib, go’yo butun dunyoni ko’tarib tura oladiganday. Uning uzun qo’llari va kuchli mushaklari uning qudratidan darak berib, ko’zlari esa o’tkir va sehrlil. Bularning hammasi uning qudratidan va dunyo hukmdori bo’lishidan darak beradi. Ushbu asardagi Temurning uch yuz kishilik askari bilan mingdan ortiq qo’shinga “dars” berib qo’yishi va dushmani qochishga majbur qilish epizodi o’zbek yozuvchilaridan Muhammad Alining “Ulug’ saltanat” teralogiyasi hamda tarixchi adiblar Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy asarlaridagi tarixiy qaydlar bilan mushtarak [2;16].

Temurbek haqidagi lavhalar XX asrning boshlarida turkiy tilda yozilgan Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” (yoki Amir Temur ko’ragon jangnomasi) asarida xalqona afsonalarga hamohang tarzda tasvirlangan: Temur dunyoga kelgandan keyin Zanjir Sara qudug’idan qirqta qul suv tortadigan qovg’ani yolg’iz o’zi tortib odamlarga suv ulashadi. Qassobning zil zambil qanorasini bir barmog’i bilan otib yuboradi. Uxlab yotganida ham sezgisining kuchidan ko’ksiga kulcha bo’lib yotib olgan ilonning boshini tishlab, uzib oladi. Yuk to’la aravani ko’tarib otib yuboradi. Mana shunday tasvirlardan ko’rinib turibdiki, Temur ertak yoki epos qahramonlari singari,



xalq orzusidagi va idealidagi qahramon va hukmdor sifatida kitobxonda tasavvur qoldiradi. Ayniqsa, uning tug'ilish sahnasining o'ziyiq u Tangri tomonidan qo'llangan shaxs sifatida tasvirlanadi: Zuhal va Mushtariy sayyoralarining yaqinlashuvi davrida tug'ilgan o'g'il Sohibqiron-uning toleyi umri oxirigacha iqboli mas'ud bo'lishi aytilgan. Chunki *"Shul soatda tangri taborok va taolo olamni yaratibdur, har farzand shul soatda tavallud topsa, oning toleyi oxir umrigacha doimo iqboli mas'uddir"* [3;351]. Asarda Qaysari Rum g'orining ichida Aristotelus yozib qoldirgan lavhada bu g'orda Iskandar uning tavalludidan sakkiz yuz yil o'tib Rasuli Akram, uning tug'ilishidan shuncha vaqt o'tib, Iskandari Soniy tug'ilgani ... bashorat qilinadi. Ushbu Iskandari soniy deya ta'riflangan shaxs Sohibqiron Temur edi.

K.Marlou hamda S.Toshkandiyning ushbu ikki badiiy asaridagi bosh qahramon ham jangchi, sarkarda va yengilmas ilohiy shaxs. Asarlardagi obrazlarning o'xshash va farqli jihatlarni o'rganish asnosida qayd etish joizki, ushbu ikki ijodkor bosh qahramon Temur obrazini yaratishda turli manbalarga tayangani etiborli. S.Toshkandiy "Temurnoma" dostonini yozishda Sharqda yaratilgan ko'plab manbalarga, qolaversa xalq og'zaki ijod namunalariga, xalq qissalariga (Qissayi Mashrab, Ibrohim Adham, Bahovuddin Naqshband) tayanilgani sezilsa, K.Marlou haqida qator ilmiy tadqiqotlar olib borgan Parfyonev ilmiy tadqiqotlarida va amerikalik yozuvchi Jastin Marotsining "Tamerlane: Sword of Islam, Conqueror of the world" asarida ma'lumot berilishicha K.Marlou Amir Temur haqidagi ma'lumotlarni florensiyalik Petro Perondinning "Skiflar imperatori Buyuk Temurning hayoti" va genuyalik Baptista Fregozoneg "Unutilmas hikmatlar va ishlar" traktatlaridan [4;5], Jorj Uetstonning "Ingliz ko'zgusi" kitoblaridan [5;66] foydalanganlik ehtimoli katta. K.Marlouning evropadagi mashhur tadqiqotchisi Ellis Fermor esa K.Marlouni asosan Xalkondilos, Haytn, Fregoza, Meksia, Premadeya va Pirondinilarning ishlari [6;13] ga tayangani haqida ma'lumotlar keltirgan.

Ingliz adabiyotida yozilgan ushbu Temur haqidagi K.Marlouning ilk asari bosh qahramonining Amir Temur shaxsidan va dramadagi sarguzasht voqeliklarning turkiy manbalar orasida eng ishonchli deb tan olingan N.Shomiyning "Zafarnoma", "Temur Tuzuklari", G'iyosiddin Alining "Hindistonga yurish kundaligi" kabi tarixiy asarlardan farqli jihatlari ham ahamiyatlidir. Bu asarlarning Evropa tillariga, jumladan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si 1722 yilda Petey de La Krua tomonidan, Ibn Arabshoh asari 1658 yilda P.Votye tomonidan fransuz tiliga K.Marlou o'limidan yarim asr o'tgandan keyingina tarjima qilingan. Shu bois, K.Marlou asaridagi vaxshiy va daxriy Temur va tarixiy shaxs sifatida o'tmish nambalarida o'z adolati va turkiy ellarni o'z yurtida bek qilish maqsadi bilan yashagan sarkarda Amir Sohibqiron o'rtasida o'xshashlik bo'lmasligi tabiiy. Shuningdek, nafaqat Amir Temur shaxsi balki uning yurishlari haqidagi ma'lumotlarda ham muallifning keng to'qimalardan foydalanganini



ko'rishimiz mumkin. Dramada Misr o'lkasi Temur tomonidan bosib olinganligi haqida so'z ketadi.

Marching from Cairo northward, with his camp

To Alexandria... (P II, Act I, stage I.)

Tarjimasi: O'z qo'shinini to'plab u

Qohiradan Aleksandriya tomon yo'l oldi.

Lekin tarixiy ma'lumotlarda Misr garchi Amir Temurga vassallikni tan olgan bo'lsada, u bu o'lkani bosib olmagan yozilgan.

K.Marlou o'z dramasini yozishda foydalangan asarlar tarixiy hujjatalr emas balki, qahramonlik romanlari ekanligi hisobga olsak, u bosib olgan o'lkalar nomlarining noto'g'ri keltirilishiga shubha qilmasa ham bulur. Chunki, bu asarlardagi sarguzashtlar tarixiy voqealar emas, "qahramonlik fantaziyalari" edi. Demak, ushbu asardagi Temur obrazi va voqeiliklar tarixiy shaxs bo'lgan Amir Temur shaxsidan tubdan farq qiladi. Amir Temur hayoti va faoliyatini o'zida mujassam etgan asarlar yoza olish, Temur faoliyati mohiyatini, uning shaxs sifatidagi ruhiyatini tasvirlash uchun, o'sha davrining muhiti, tarixiy manbalari, ilm-fan, tarix manbalari tasdiqlab bergan dalillarni chuqur o'rganish tarixiy asarlar yozajak adib oldiga qo'yiladigan talablaridan sanaladi [7].

Ma'lumki, tarixiy voqealarga asoslangan asarlarni yozishda tasvirlanayotgan davr uchun tipik bo'lgan real haqqoniy va hayotiy harakatlarni yaratish badiiy ijodning bosh qonuniyati ekan, akademik Matyoqub Qo'shjonov ta'kidlaganidek, "Tarixiy janrda ish ko'radigan yozuvchi... badiiy to'qimadan tarixiy haqiqat taqozo qiladigan darajada foydalansa ham, tarixiy dalillarga asosiy manba sifatida yondoshadi, shu asosda tarixiy shaxs xarakteri tasvirlanadi" [8;96]. Tadqiqotlatda tarixiy mavzudagi asarlarning xususiyati haqida gap ketganda, tarixiy voqea bilan roman o'rtasidagi muvozanatni saqlash, kitobxonni romandagi tarixiy voqealarga ishonirish, bu o'rinda adabiyotning yutug'i esa yozuvchining mahorati bilan kitobxon ishonchi uyg'unlashgan nuqtada kesishishi [9] aytilgan. Shu fikrlardan xulosa qilish mumkinki, K.Marlou ingliz adabiyotiga Temur shaxsini o'z asari bilan tanishtirar ekan, badiiy to'qimaga tayanib ish ko'rgan, tarixiy haqiqatdan taqozo qilingan darajada foydalanmagan, tarixiy dalillarga asosiy manba sifatida qaramasdan, sarguzasht kechinmalariga urg'u bergan. Yoki, ushbu tarixiy ma'lumotlar K.Marlougacha yetib bormagani uchun uydirma va og'zaki ma'lumotlar bilan chegaralangan ko'rinadi. Asarga garchi Temur obraziga Amir Temur shaxsidan prototip sifatida foydalanilgan bo'lsada, aslida K.Marlougacha o'z zamonasiga bo'lgan munosabatini va g'oyalarini, siyosiy va diniy qarashlarini ifodalash uchun, zamonasining dolzarb muammolarini yoritib berish uchun nomlar, maskanlar, joylar kerak edi [10;25]. Ushbu katta maqsadni yuklashga arziqli shaxs kerak edi. Bu



tavofutlarda. Sharqdan G'arbgga sari og'izdan og'izga ko'chib, yo'l-yo'lakay ma'lum o'zgarishlarga uchragan afsonalarning ham roli katta.

Shuningdek, Ingliz adabiyotida Amir Temurni tarixiy shaxs sifatidan ko'ra badiiy obraz sifatida kiritgan K.Marlou o'z yurti Angliyaning mutloq monarxiya davridagi ba'zi bir tabaqa vakillarining kirdikorlarini oshkor qilish uchun majoziy nomlardan foydalanishga majbur edi. Bu fikrlarning asosi sifatida A.T.Parfyonovning "Bu o'rinda sharqlik podshohning haqqoniy harakterini yaratishga shoir harakat qilganini izlash noo'rin bo'lardi: o'sha davrda Angliyada ro'y berayotgan voqealar unga o'z kuzatishlari uchun yetarlicha psixologik material bo'lib xizmat qila olardi [11;40]". Bunday vaziyatlar haqida sharqshunos olim S.Grinblatt ham ma'lumot beradi: "Garchi Marlou o'z asarlarida skifiyalik cho'pon, maltalik yahudiy, germaniyalik sehrigar kabi ekzotik obrazlardan foydallangan bo'lsada, muallif ular orqali o'z vatandoshlarini tasvirlaydi [12;94]". Shu bois ham "Buyuk Temur" dramasi tarixiylik tamoyilidan ko'ra afsona va rivoyatlarga yo'g'rilgan badiiylik tamoyili ko'proq ko'zga tashlanadi. Dramada Damashqda yosh qizlarning o'ldirilishi, Boyazidning qafasga solinishi epizodlari aslida o'sha tomon qarashlarining mahsuli bo'lgan afsonalardir.

Amir Temur haqida asarlarni sinchiklab o'rganish asnosida bir biriga o'shah ma'lumotlar ba'zan K.Marlouning asarida tubdan zid ma'no kasb etgani- ushbu shaxsga g'anim va do'st elatlar tilidan aytilganini aniqlashga ko'maklashadi. Masalan. K Marlouning "Buyuk Temur" dramasi beshinchi-parda birinchi ko'rinishida Damashqda yosh norasida qizlarning Temur oldiga elchi sifatida jo'natilishi va o'limga ro'baro qilinishi sanhasi, Pedro Meksiya sarida Damashqda bolalar va ayollarning qo'llarida zaytun novdalari bilan shahardan chiqib, Temurning ko'nglida rahm shafqat o'yg'otish [13;195] epizodi, Ibn Arabshoh va Shiltbergerning esa Isfaxonda yosh go'daklarning elchi bo'lib kelishi voqealari Shomiyda qo'yidagicha tasvirlangan: "U norasida olti yoshda bo'lib, g'oyat hushro'y va shirinso'z edi... Amir Sohirqiron unga rahm qilib, sarpo kiygizdi, bo'yniga oltin hamoyil solib otasi oldiga yubordi. [14;204].

Tarixiy manbalarga asoslanmagan va Sharqdan G'arbgga qaytgan sabdogarlardan tarqalgan deya tahmin qilinadigan Temurning o'z o'g'lini o'ldirish voqeasi chamasi Mironshox Mirzoning Amir Temur tomonidan o'limga hukm qilish voqeasiga asoslangan bo'lishi mumkin. Alisher Navoiy ham "Majolis un nafois" asarida Mironshox Mirzoning chog'irga ko'p berilib ketgani va buning oqibatida nomaqbul amrlar qilgani [15;163] haqida aytib o'tadi. Faqat tabiblar qo'ygan tashxislar hamda ayyonlarning iltimoslari bilan hukm bekor qilinishi nazarimizda ushbu afsonalardagi otaning o'g'lini o'ldirishi voqealariga e'tiborsiz qoldirilib, voqea turli talqinlarda tarixiy haqiqatdan uzoqlashtirilib G'arbgacha yetib brogan. Otaning o'g'lini o'ldirish voqesi biz qiyosiy o'rganishni maqsad qilgan Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma"



asarida ham bor. Asarning yigirma oltinchi dostonida Jahongir va Umarshayx Mirzoning bir qizga ko'ngil berishi, natijada aka-uka o'rtasida nizo chiqishi, oxir oqibatda Jahongir Mirzoning qizni o'ldirib qo'yishi ortidan otasi tomonidan zindonga tashlanishi, Mirzo esa tog'asining oldiga Balxga qochgan mahalda o'z tog'asining hiylasi orqali nobud bo'lishi keltiriladi.

Otaning o'z o'g'lining qotiliga aylanishi sahnasi K.Marlouda ham keltirilgan bo'lib, ushbu o'xshashlik zamirida ba'zi adabiyotshunos olimlar Chingizxonning o'g'li Jo'chini o'ldirtirishi ta'sirida yozilgan ham bo'lishi mumkin deb tahmin qilishadi. Ushbu afsonalar ham Temurga nisbat berilgan bo'lishi mumkin. Ushbu voqea esa o'zbek adabiyotida Nurali Qobulning "Sultonning so'ngi kuni yohud Amir Shibqiron va To'xtamish" tarixiy romanida o'z aksini topgan [16; 247-250].

Amir Temurni tarixda qattol va bosqinchi, vaxshiy hamda qonxo'r qahramon sifatida asarlarda tasvirlanishi mualliflarning Sohibqiron shaxsiga va siyosatiga munosabatiga, qolaversa Amir Temur bosib olgan hudud vakili bo'lishiga ham bog'liq. Ammo davr talabi va ota makonini bosqinchilardan holi yurtni orzulagan, "*Musulmon musulmonni ranjitishi, mollarini xarob qilishi joiz bo'lmagan ishdur* [17;144]", degan gapidan a'moli va insoniy fazilatlarini ko'rinib turgan ushbu siymoga nisbatan ichki hissiy munosabat bilan yozilgan asarlardagi to'qima bo'rtirilishlar bilan bezatilgan sahnalar ham talaygina. Mana shunday shaxslardan biri Ibn Arabshox bo'lib u Amir Temurni xatti harakatlariga izoh tarzida u tug'ilganidanoq qo'llari yangi qonga buyalgan ekan, degan afsonani keltiradi [18; 68]. Bu mazmundagi afsona esa Stenli Len Pulning "Musulmankiy dinastii" asarida Chingizxonga oid voqea sifatida keltiriladi [19; 40].

Xulosa qilib aytish mumkinki, Amir Temurning dunyoni zabt etgan va o'z janglarida mag'lubiyatga uchramagan jahongir ekanligi haqidagi afsonayu rivoyatlar, uning tarixiy shaxs sifatida va badiiy qahramon tarzida Sharq va G'arbliklarning g'ayritabiiy voqeiliklarni turli talqinlarda o'z ijodlariga singdirib yuborish sabablari haqida ilmiy xulosalar berishga harakat qildik. Demak, Kristafor Marlou va Salohiddin Toshkandiyning asarlarini kuzatish jarayonida guvohi bo'ldikki, ushbu asarlarda Amir Temurni tipiklashtirish deb talqin qilish to'g'ri bo'lar edi. Tarixiy shaxsning asarga ko'chgan obrazi va tarixiy voqealarning o'rtasidagi mutanosiblikkina uni tarixiy asar yoki to'qima badiiy asar ekanligini namoyon qilib beradigan omillardan biridir. Zero, Abu Rayhon Beruniy "Badiiy asarlar tarkibidagi afsona va rivoyatlarni aniqlab olish va rad qilish va ma'lum voqea yoki hodisalarni rad qilish yoki tasdiqlashda ushbu janrlarning vazifasi nihoyatda murakkab [20; 41]" ekanligini ko'rsatadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Z.R. Yaxshiyeva. "Study of the image of Amir Temur and Alisher Navoi in uzbek literature. International conference on higher education teaching hosted from Hamburg, Germany.2023.
2. O.Dadajonov. G'arb va sharq adabiy kontekstida Amir Temur shaxsi talqini. Filol.fan.fal.dok.diss.2019.16 bet.
3. Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. Nashrga tay. so'zboshi va lug'at muallifi Poyon Ravshanov. T.: 1990.-351b.
4. Парфёнев А. Т. Трагедия Кристафор Марло: Автореф. Дисс.канд. филл.наук. М:1965.5 с.
5. Мароци, Жастин.Тамерлан. Завоеватель мира.М.: Полиграфиздат, 2010. – 445/66.с
6. Ellis Fermor U.M. Christopher Marlowe. London.1927.215/13.p
7. Z. R. Yaxshiyeva. Historical reality and its artistic interpretation. neuroquantoioogy .november 2022.Volume 20 | issue 15 | page 2510-2513.
8. M.Qo'shjonov. Oybek mahorati. Toshkent. 1965. 356/96 b.
9. N.Rahmonov. Tarixiy davr manzarasi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati". 2012.№1
10. O.Dadajonov. G'arb va sharq adabiy kontekstida Amir Temur shaxsi talqini. Filol.fan.fal.dok.diss.2019.25 bet.
11. Парфёнев А. Т. Трагедия Кристафор Марло: Автореф. Дисс.канд. филл.наук. М:1965.40с.
12. Greenblatt Stephen. Marlowe and the Will to absolute play.-Chicago. 1980. 150/94 p
13. Mexia Pedro. Silve de varia eccion. Madrid: 1673.571/195p.
14. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma.T.: O'zbekiston. 1996.528/204 b.
15. A.Navoiy. Majolis un nafois. 13 tom. T.: Fan. 1997. 284/163 b.
16. Nurali Qobul. "Sultonning so'ngi kuni yohud Amir Shibqiron va To'xtamish".T.: Kamalak. 2014.-576/247-250 b.
17. Temur Tuzuklari.T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi.1991.144 b.
18. Ibn Arabshox. Amir Temur tarixi. T.: Mehnat nashriyoti. 1992. 327/68b.
19. O. Dadajonov. G'arb va sharq adabiy kontekstida Amir Temur shaxsi talqini. Filol.fan.fal.dok.diss.2019.40 bet.
20. A. Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. T.:Fan.1968.41b.